



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich, Ergashyeva Go'zalxon
Ergashaliyevna

Farg'ona viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi katta o'qituvchilari, Farg'ona sh., O'zbekiston Respublikasi

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI JONLANTIRISHGA IJOBIY TA'SIR ETADIGAN AYRIM OMILLAR HAQIDA

Annotatsiya

Maqolada malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning bilish faoliyatini jonlantirishga ijobiyligi ta'sir etuvchi omillar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, unda tinglovchilarning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi usullarni qo'llash yo'llari va ularning ahamiyati batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: axborot, bilim, g'oya, fikrlash, ta'lif, ta'sir, texnologiya, vositalar, qobiliyat, qo'llash.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunida "Ta'lif olish huquqi ... ta'lif tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish, ... kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ... orqali ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. Zero, ta'lif bu ta'lif oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lif va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Yangi tushunchalar va g'oyalar bilan tanishish odatda yangi bilimlar orqali hosil qilinadi. Bilim – bu aniq shaxsga tegishli bo'lgan tushunish holatidir.

Barchamizga ma'lumki, o'qitishga an'anaviy yondashuvda "tayyor" bilimlarni uzatib berish modeli asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda bilimni insondon insonga, suvni bir idishdan ikkinchi idishga quygandek uzatiladi deb qarash unchalik to'g'ri emas. Bilamizki, mustaqil fikr yuritish jarayonidagina insonda yangi fikr, mulohaza, g'oya va maqsadlar



vujudga keladi. Mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirish, uni davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqatli etib tarbiyalash esa ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Xo‘sh bunga qanday qilib erishish mumkin?

O‘quv-uslubiy majmua ... o‘quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, tinglovchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta’lim resurslari, o‘qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi, deya e’tirof etilgan. Tayanch bilimlarni shakllantirish asosiy bo‘limlardan ekan, mazkur jarayonda tinglovchilar faolligini oshiruvchi asosiy omillar qaysilar ekanligini bilish juda muhimdir. Bu muammo shu kungacha mavjud ilmiy pedagogik adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Bugungi kunda pedagogikada tinglovchilarning bilish jarayonidagi faolligini oshirishga mo‘ljallangan bir nechta o‘qitish uslublari ishlab chiqilgan. Lekin ularning barchasini ham birday samarali natijalar beradi deb bo‘lmaydi. Fikrimizcha, har bir o‘tiladigan dars mashg‘uloti o‘ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir. Shu bois birorta usulni tanlab olib, uni mashg‘ulotga majburan “singdirish” to‘g‘ri emas. O‘qituvchi dars mashg‘ulotini loyihalari ekan, uning mazmuni va xususiyatidan kelib chiqib, samarali bo‘lgan ta’lim texnologiyasini o‘zi tanlab olishi, uni tasavvur etishi, yoki o‘zi “o‘ylab topishi” kerak bo‘ladi. Tabiiyki, o‘qituvchilik mas’uliyatini chuqur anglagan har bir o‘qituvchi bevosita ta’lim berish faoliyatiga kirishar ekan, o‘zining pedagogik mahoratining asta-sekin “sayqallanib” borishiga va kafolatlangan yangi natijalar berishiga astoydil harakat qiladi.

Quyida tinglovchilarning bilish faoliyatini jonlantirishga ijobiy ta’sir etadigan ayrim omillarni tavsiya etamiz:

1. Tayanch bilimlarni shakllantirishda mavzuni bayon etishning eng samarali usullarini qo‘llash. Ayniqsa, yangi mavzuni bayon etishda zamonaviy axborot texnologiyalari samarali qo‘llanganda tinglovchining ko‘rish, eshitish, fikrlash tasavvuri orqali mavzuni o‘zlashtirishi faol tarzda amalga oshiriladi. Ekranga chiqariladigan ma’lumotni turli shaklda va o‘lchamda namoyish etish imkoniyatining mavjudligi ko‘rgazmalilikni oshiradi.
2. Muammoli vaziyatlar yaratish. Mustaqil fikr yuritish jarayoni muammoli vaziyatning vujudga kelishidan boshlanganligi sababli yangi mavzuni bayon etishda muammoli vaziyatlarni yaratishga alohida ahamiyat berish maqsadga muofiq. Masalan, bunday savol va vaziyatlarni taqdimot sahifalarida joylashtirish ham juda samaralidir.
3. Fikrlash jarayonini faollashtiruvchi usullarni qo‘llash. Tinglovchilar ham har qanday inson singari maqtovga moyildirlar. Ma’ruza mashg‘uloti so‘ngida mavzuni mustahkamlash uchun “*Eng so‘nggi fikr*” texnologiyasining o‘tkazilishi har bir tinglovchiga rag‘batga erishish imkoniyatini beradi. Tinglovchilar bunda ixtiyoriy ravishda mavzuga tegishli mulohazalarni, yangi o‘zlashtirgan bilimlarini namoyon qila boshlaydilar. Noto‘g‘ri bildirilgan yoki mantiqan ma’nosiz fikrlar bilimlar bazasiga qabul qilinmaydi. Eng so‘nggi to‘g‘ri fikrni aytgan tinglovchi g‘olib hisoblanadi. So‘nggi fikrni belgilangan vaqtga qarab yoki fikrlarning chegaralangan soniga qarab ajratib olinadi. O‘qituvchi tinglovchilarga shunday so‘zlar bilan murojaat etib turadi: “Men bugun o‘nta fikr eshitmoqchiman!”, “Shaxsiy fikrlarni besh daqiqa davomida bildiring”, “Fikringiz to‘g‘ri, qabul qilindi”, “Ozgina aniqmaslik mavjud, yana qaytadan fikrlab ko‘ring”, “Bu yangi fikrni siz taklif etayapsiz, juda yaxshi”, “Yana qaytadan javob berishga harakat qiling, adashypsiz” singari. Albatta, oxirgi fikr egasi rag‘batlantiriladi. Chunki, u bunga loyiq!



Usulning afzalliklari quyidagilardan iboratdir:

- shaxsiy fikrlar faqat mavzuga tegishli bo‘lganligi uchun tinglovchi, albatta, mavzuni o‘zlashtirishga harakat qiladi;
- eng so‘nggi fikrni aytish uchun bilimlarning yetarli bazasiga ega bo‘lish talab qilinadi;
- tinglovchilarda yangi tushunchalarga tegishli “nozik jihatlarni ham ilg‘ab olish” majburiyati hosil bo‘ladi;
- ma’lumotlarning tinglovchilar tomonidan e’tirof etilayotganligi beixtiyor mavzuni mustahkamlaydi, bu esa aynan puxtalik tamoyilining o‘quv jarayonida namoyon bo‘lishidir;
- bugungi kunda “*noyob*” bo‘lib borayotgan tinglovchining nutq madaniyati sayqallanib, ko‘pchilik ichida fikrini bayon qila olish malakasi hosil bo‘ladi;
- tinglovchida o‘z fikrini himoya qilish ehtiyoji tug‘ilib, o‘zining imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi ortadi;
- va nihoyat hamma tinglovchilarda (hatto passiv tinglovchilarda ham) bilishga bo‘lgan moyillik, xohish uyg‘onadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘rganishga doir amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilarga avval ko‘rgazmali tarzda topshiriqlarni birgalikda bajarishni taklif etish foydalidir. So‘ngra barcha tinglovchilarning bajargan amaliy ishlari natijalari o‘qituvchi tomonidan qayd etilgach, mavzu doirasida paydo bo‘lgan bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimini baholashning yangi uslubini, “Javobi yo‘q muammo!” munozarali o‘yinini taklif etamiz.

U quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- ✓ dastlab kichik guruhrular faoliyati shakllantiriladi;
- ✓ har bir guruhgaga bugungi mavzu doirasida o‘zlari duch kelgan muammoli vaziyatlardan savollar tuzish talab etiladi;
- ✓ savollarga guruhrular tomonidan o‘zaro kelishib javob beriladi;
- ✓ javobi topilmay qolgan muammoli savol rag‘batlantirishga loyiqdir;
- ✓ savolni tuzgan barcha guruh a’zolari qo‘srimcha baholanadi.

Usulni qo‘llash natijasida quyidagi natijaga erishiladi:

- tinglovchilarda amaliy mashg‘ulot davomida hech kim “ilg‘amay qolgan” jihatlarga e’tibor berish zaruriyati tug‘iladi, bu esa chuqr bilimlarning hosil bo‘lishiga olib keladi;
- o‘zaro muloqot davomida tinglovchilarda egallangan amaliy malakalar bo‘yicha tajriba almashish imkoni paydo bo‘ladi;
- o‘zaro fikrlashish va babs-munozaralar hamfikrlilik va do’stona munosabatlarni shakllantiradi;
- tinglovchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish malakalari rivijlanadi;
- nihoyat mashg‘ulot “tasodiflar” tufayli qiziqarli va samarali yakun topadi.

Shunday qilib, to‘g‘ri qo‘llangan o‘qitish usuli yuqorida keltirilgan natijalarga erishtirib dars samaradorligini sezilarli oshishiga olib keladi. Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki,



tinglovchilarni faol va mustaqil ishlashga o‘rgata olsakkina, biz tashabbuskor insonlarni tarbiyalay olamiz. Zero, har bir dars yangi san’at asari singari betakror, o‘ziga xos jihatlari bilan tinglovchini “rom etadigan” bo‘lishi kerak. Bu o‘qituvchidan mehnat va tadbirkorlikni talab etadi. Toki, bugungi kunda o‘quvchini chalg‘ituvchi turli vositalar va axborot manbalari mavjud ekan, har bir fan o‘qituvchisi o‘z fanining xususiyatidan kelib chiqib, dars mashg‘ulotini oldindan loyihalab olishi, o‘zigagina yoqadigan, qo‘llash uchun qulay bo‘lgan yangi ta’lim texnologiyalarini tinmay “kashf etishi” muhimdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar / – T.: “Offset print”, 2013.
3. Jo‘rayev R. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T.: “Fan” nashriyoti, 2008.
4. Mirxodjayeva D.B. Muammoli ta’lim texnologiyasini o‘tkazish tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari / – T.: “To‘qimachi”, 2016.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
6. Muxina S.A., Solov’yova A.A. Sovremennye innovatsionnye texnologii obucheniya / – M.: “Geotar-mediya”, 2008.
7. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “Iqtisod–moliya”. 2012.
8. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliquova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Met. qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
9. Safarova R. Pedagogika Ensiklopediya (1-2-jiddlar). – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” ilmiy nashriyoti, 2015.
10. F.Umarova va b. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltitilgan ta’lim. – T.: “Bekinmachoq-plyus” nashriyoti, 2013.
11. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari / – T.: “Pedagog” nashriyoti, 2004.
12. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: TIB-KITOB, 2009.